



MILLIY VA XALQARO SUG'URTA BOZORLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

DEVELOPMENT TRENDS OF NATIONAL AND INTERNATIONAL INSURANCE MARKETS

**¹Sharobiddinov Akramjon
Goyibbayevich**

¹"Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ Bosh direktor o'rinbosari,
iqtisodiyot fanlari nomzodi. **E-mail:** akramjon2009@mail.ru

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Mazkur maqolada O'zbekiston va xalqaro sug'urta bozorlarining rivojlanish tendensiyalariga oid asosiy ko'rsatkichlar tahlil qilingan, sug'urta sohalarini rivojlantirish istiqbollari o'rganilgan, xalqaro sug'urta (qayta sug'urta) bozori bilan integratsiya jarayonlari tahlili asosida taklif va tavsiyalar berilgan.

Eng. - The article analyzes the main indicators of development trends of the national and international insurance market, studies the prospects for the development of insurance industries, and provides proposals and recommendations based on the analysis of integration processes with the international insurance (reinsurance) market.

Kalit so'zlar: Keywords:

- ❖ sug'urta va qayta sug'urta faoliyati, umumiy va hayot sug'urtasi sohaları, ixtiyoriy va majburiy sug'urta.
- ❖ insurance and reinsurance activities, branches of general insurance and life insurance, voluntary and compulsory insurance.

Kirish.

Bugungi kunda sug'urta davlat va jamiyat hayotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biriga aylandi. Davlat uchun turli yo'qotishlarda moliyaviy ko'mak vazifasini bajarsa, tadbirkorlik subyektlari uchun yangi innovatsiyalarni joriy etish, barqaror rivojlanishi uchun imkoniyat yaratmoqda. Aholi o'z kelajagini sug'urta mexanizmlari orqali kutilmagan, rejasiz yo'qotishlardan himoyalash orqali rejalashtirmoqda.

Davlat va jamiyat rivojida sug'urtaning o'rnini baholashda nafaqat uning sug'urta hodisalari orqali yo'qotishlarni qoplash funksiyasi, balki aholini ish bilan ta'minlash, moliya-kredit tashkilotlarini investitsiyalash, xalqaro integratsiya yo'nalishlarida ham asosiy funksiyalariga e'tibor qaratish zarur.

2024-yilda AQShda yalpi ichki mahsulot (YaIM) miqdori 27,36 trln. AQSh dollarini (aholi jon boshiga YaIM 81,6 ming AQSh dollari), Xitoyda 17,66 trln. AQSh dollarini (aholi jon boshiga YaIM 12,0 ming AQSh dollari), Germaniyada 4,46 trln. AQSh dollarini (aholi jon boshiga YaIM 52,7 ming AQSh dollari), Rossiyada 2,0 trln. AQSh dollarini (aholi jon boshiga YaIM 13,7 ming AQSh dollari) tashkil etgan [17].

Shuningdek, Qozog'istonda YaIM miqdori 2024-yilda 288 mlrd. AQSh dollarini (aholi jon boshiga YaIM 14,0 ming AQSh dollari) [18], O'zbekistonda esa, 2024-yilda YaIM miqdori 115,0 mlrd. AQSh dollarini (aholi jon boshiga YaIM 3,1 ming AQSh dollari) tashkil etdi [19].

Sug'urta sohasi zamonaviy iqtisodiyotning indekatori hisoblanib, YaIM yaratilishida, xizmatlar sohasi ulushining oshishida asosiy o'rin tutadi. Iqtisodiyotda

sug'urta nafaqat iqtisodiyotning dastaklaridan biri sifatida, balki davlat, biznes vakillari, aholi uchun zarur barqarorlik manbai hisoblanadi. Turli hodisalar natijasida ko'rilgan zararlarni sug'urta mexanizmlari orqali qoplash yoki zarar miqdorini kamaytirishda, kutilmagan tabiiy ofatlar, texnogen fojialarning yuzaga kelishi natijasida kuzatiladigan salbiy oqibatlarini yumshatishda sug'urta eng maqbul yo'nalish hisoblanadi.

Xalqaro sug'urta bozorida, jumladan O'zbekistonda ham sug'urta sohasi jismoniy va yuridik shaxslar uchun ahamiyatli bo'lib bormoqda. Ayniqsa, global iqlim o'zgarishi sharoitida, turli davlatlar iqtisodiyotining nomutanosibligi sharoitida, xalqaro iqtisodiy integratsiyalar sharoitida sug'urtaning o'rni asosiy omilga aylandi.

Sug'urta va qayta sug'urtalash sohasida jahon yetakchilaridan biri bo'lgan Munich RE ma'lumotlariga asosan 2024-yilda jahonda tabiiy ofatlardan ko'rilgan iqtisodiy zarar miqdori 320 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan. Ko'rilgan zararining 44 foizi yoki 140,9 mlrd. AQSh dollari sug'urta kompaniyalari tomonidan qoplab berilgan [20].

O'zbekistonda har yili tabiiy ofatlar o'rtacha 1,4 mln. kishiga ta'sir o'tkazgan holda, 3 mlrd. AQSh dollariga yaqin zarar yetkazadi. Prognozlariga ko'ra, iqlim o'zgarishi tabiiy ofatlar, ayniqsa qurg'oqchilik, suv toshqinlari va ko'chkilar xavfini oshiradi. Hisob-kitoblarga ko'ra, yirik suv toshqini mamlakat YaIMning taxminan 5 foiziga zarar yetkazishi mumkin va kuchli qurg'oqchilik ham xuddi shunday jiddiy iqtisodiy ta'sirga ega bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, nafaqat xalqaro sug'urta bozorida, jumladan O'zbekistonda ham sug'urtalash mexanizmlarini takomillashtirish, iqtisodiyotda sug'urtaning jadal o'rnini belgilash, kutilmagan yo'qotishlarni o'rnini qoplash yo'nalishida sug'urta asosiy mezonlardan biri bo'lib qolaveradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Sug'urta sohasi boshqa bir qator bozor vositalari qatori mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlovchi vosita hisoblanib, iqtisodiy taraqqiyotning rag'batlantiruvchisi hisoblanadi. Sug'urta tashkilotlari tomonidan yig'iladigan sug'urta mukofotlari jam'armalarni shakllantiradi va o'z navbatida shakllantirilgan, jamg'arilgan mablag'lar investitsiyalarga aylantiriladi, bu esa mamlakatning butun moliya tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Har qanday iqtisodiyotda kutilmagan, har xil turdagi risklar, yo'qotishlar yuzaga keladi. Kutilmagan, rejalashtirilmagan har qanday salbiy holatlar rivojlangan yoki rivojlanayotgan mamlakat iqtisodiyotiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Bozor iqtisodiyotining asosi hisoblangan har qanday biznes faoliyati tavakkalga asoslanadi va avvaldan nima bo'lishini bilmaymiz, biznes strategiyalarida kelajakda hech qanday salbiy o'zgarishlar ro'y bermasligiga kafolat berib bo'lmaydi, tabiiyki, har qanday biznes riskka asoslangan. Demak, har qanday iqtisodiyotda, biznesda kutilmagan risklardan ko'riladigan zararlarni qoplash yoki kamaytirish maqsadida sug'urta mexanizmlaridan foydalaniladi.

Iqtisodiyotda sug'urtaning o'rni butun dunyo olimlari tomonidan o'rganilgan va zamonaviy iqtisodiyotda ayniqsa, bu yo'nalishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xalqaro sug'urta bozori va tendensiyalarini bir qator g'arb olimlari tomonidan keng o'rganilganligi va yoritilganligiga guvoh bo'lamiz. Jumladan, D.Dikson, G.Levi, D.Orini, R.Merkin, JI.Geratevolb, D.Batler, X.Skriper, D.Bikelxopt, R.Mert, D.Kiduell, JIMiller, F. Mishkin, D.Sinki, S.Frost, D.Bland, V.Rayxer va boshqa yetakchi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Shuningdek, mazkur yo'nalishda Adamchuk N.G., Krilova M.M., Plaxova T.A., Turbina K.E., Fedorova T.A., Yuldashev R.T., Pleshkova A.P., Orlova I.V., Chernova G.V., Juravlev M.I. va boshqa bir qator olimlar

tomonidan o'rganishlar, tahlillar, qo'llanmalar va boshqa ilmiy yangiliklar fanga kiritilgan hamda amaliyotga joriy etilgan.

Adamchuk N.G. "Globallashuv sharoitida sug'urta xizmatlarining jahon bozori" mavzusidagi dissertatsiyasida sug'urtaning ahamiyati haqida so'z yuritib, "Integratsiya bloklarining yaratilishi, munosabatlarning chuqurlashishi va jahon xalqaro iqtisodiy munosabatlari shakllanishining allaqachon mavjud belgilari yuridik, jismoniy shaxslar va davlatni kutilmagan hodisalardan himoya qilish va bu faoliyatni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan sug'urtaning ahamiyatini oshiradi" deb fikr bildiradi [22].

Mamlakatimiz olimlaridan Azimov R.S., Baymurotov T.M., Jumayev N.X., Yuldashev O.T., Kenjayev I.G., Abduraxmonov I.X., Ochilov I.K., Sultonov D.M., Umarov S.A., Shennayev X.M., Shirinov S.E., Qo'ldoshev Q.M. kabi iqtisodchi omillar umumsug'urta faoliyati, sug'urta sohalari, jumladan xalqaro sug'urta bozori bo'yicha o'z ilmiy qarashlarini bayon etishgan.

Yuqoridagi olimlar qarashlari, hozirgi zamonaviy sug'urta bozori, jahon sug'urta bozoridagi jadal xalqaro integratsiya, chuqur ildiz otayotgan xalqaro qayta sug'urta bozori, iqlim o'zgarishlari, geosiyosiy vaziyatlar va


boshqa omillarni hisobga olga holda takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolada xalqaro va O'zbekiston sug'urta bozorining asosiy ko'rsatkichlari tahlil qilingan, sug'urta sohalari va sug'urtaning iqtisodiyotdagi rolga baho berilgan. Maqolada mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan samarali foydalanilgan. Globallashuv, raqamlashtirish va iqlim o'zgarishi sharoitida sug'urta mexanizmlari orqali iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etuvchi takliflar ishlab chiqilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda sug'urta bozori iqtisodiyotning doimiy rivojlanib, o'zgarib borayotgan yirik bo'lagi hisoblanadi. Xalqaro sug'urta bozori ko'plab jihatlarni o'z ichiga olib, davlat tomonidan tartibga solishdan tortib, sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi raqobat, bozorga kiritilyotgan yangi sug'urta mahsulotlari va yangi sotuv texnologiyalarini ishlab chiqish, jamg'armalar, zahiralarni shakllantirish, rentabelli investitsiya faoliyati, xalqaro qayta sug'urta bozori bilan integratsiya va boshqa iqtisodiy, ijtimoiy omillar bilan bog'liq.



*Ochiq ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan

1-rasm. 2024-yilda ayrim mamlakatlarda YaIMda sug'urtaning ulushi, foizda*

2024-yilda jahon sug'urta bozorida 7,9 trln. AQSh dollariga teng sug'urta, qayta sug'urta mukofotlari yig'ildi, bu jahonda yaratilgan yalpi ichki mahsulotda sug'urtaning

ulushi taxminan 7-8 foizni tashkil etganligini anglatadi. O'zbekistonda 2024-yilda yaratilgan yalpi ichki mahsulot hajmi 115,0 mlrd. AQSh


dollarini tashkil etib, sug'urtaning ulushi qariyb 0,7 foizni tashkil etdi.

Jahon sug'urta bozorida sug'urta mukofotlarining 2023-yilga nisbatan o'sishi 5,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 21%ga yetgan. Oxirgi besh yil ichida mamlakatimizda sug'urtaning YaIMdagi ulushi qariyb 2 barobarga oshgan.

Jahon tajribasi va amaliyotida sug'urta sohasi asosan ikki yo'nalishda - hayotni sug'urta qilish va umumiy sug'urta yo'nalishida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 23 noyabrdagi O'RQ-

730-son "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 6-moddasida (Sug'urta sohalari va turlari (klasslari)) sug'urta sohalari ikkiga: hayotni sug'urta qilish va umumiy sug'urta sohalariga bo'linishi belgilangan [1].

Ayrim mamlakatlarda hayotni sug'urta qilish sohasining ulushi yuqori hisoblanadi, misol uchun 2023-yilda Yaponiyada 75%gacha, AQShda 52%gacha, Buyuk Britaniyada 34%gacha yetgan. 2024-yilda jahon sug'urta bozorida yig'ilgan sug'urta mukofotlarining 43%i yoki 3,4 trln. AQSh dollari hayotni sug'urta qilish sohasi hissasiga to'g'ri kelgan.



2-rasm. Jahon va O'zbekiston sug'urta bozorida 2024-yilda yig'ilgan sug'urta mukofotlari hajmi sug'urta sohalari kesimida [12]

O'zbekistonda 2024-yilda hayotni sug'urta qilish sohasida 286,3 mlrd. so'm sug'urta mukofotlari yig'ilgan bo'lib, umumiy sug'urta mukofotlaridagi ulushi 3%ni tashkil etgan.

2021, 2022-yillarda O'zbekistonda hayotni sug'urta qilish sohasining umumiy sug'urta mukofotlaridagi ulushi mos ravishda 19,2 va 24,5 foizni tashkil etgan.


O'zbekiston Respublikasining «2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti to'g'risida»gi qonuni, «Soliq va budjet siyosatining 2023-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar

kiritish to'g'risida»gi qonuni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining «2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida»gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilinib, ushbu qonunchilik hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 378-moddasi 15-bandidagi jismoniy shaxslarning daromad solig'iga berilgan soliq imtiyozi 2023-yil 1 apreldan bekor qilindi.

Aynan shu davrdan, ya'ni 2023-yildan boshlab hayotni sug'urta qilish sohasida yig'iladigan sug'urta mukofotlari hajmi keskin kamaydi, O'zbekiston sug'urta bozorida aynan hayotni sug'urta qilish sohasida faoliyat

yuritadigan bir qator sug'urta kompaniyalari o'z faoliyatini to'xtatdi. Buning natijasida, jami sug'urta mukofotlari hajmida hayotni sug'urta qilish sohasi ulushi keskin kamaydi. Rivojlanayotgan iqtisodiyotda, doimiy, o'rtacha

10 foizlik inflyatsiya mavjud bo'lgan iqtisodiyotda hayotni sug'urta qilish bilan bog'liq jismoniy shaxslarning daromad solig'iga berilgan soliq imtiyozi zaruriy asos edi.



3-rasm. O'zbekistonda umumiy va hayotni sug'urta qilish sohalari bo'yicha yig'ilgan sug'urta mukofotlari (mlrd. so'mda va ulushi foizda)

Jahon sug'urta bozori amaliyoti va tajribasidan ma'lumki, hayotni sug'urta qilish sohasi bevosita aholi uchun ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan sug'urta xizmatlarini o'z ichiga olib, mamlakat iqtisodiyotiga va jamiyat farovon hayotiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

2023-yildan boshlab hayotni sug'urta qilish sohasida imtiyozlar bekor qilinishi natijasida majburiy sug'urta turlarining ulushi oshib borgan. Aksincha umumiy sug'urta sohasida majburiy sug'urta ulushi yildan yilga kamayib bormoqda. Bu ixtiyoriy sug'urta turlarining rivojlanishi bilan bog'liq.

1-jadval

O'zbekistonda umumiy va hayotni sug'urta qilish sohalari bo'yicha yig'ilgan sug'urta mukofotlari va to'lovlari hajmi [12]

Ko'rsatkichlar / davr	Sug'urta mukofoti, mlrd so'mda					Sug'urta to'lovlari, mlrd. so'mda				
	2021y.	2022y.	2023y.	2024y.	2025y. I chor.	2021y.	2022y.	2023y.	2024y.	2025y. I chor.
Jami sug'urta mukofotlari	3 732,0	6 231,8	8 059,6	9 770,1	2 630,4	1 235,1	2 596,8	2 022,1	2 204,5	643,7
Umumiy sug'urta sohasi	3 015,0	4 707,1	7 737,2	9 483,7	2 434,8	618,8	1 098,7	1 568,5	2 073,1	596,4
majburiy sug'urta	476,3	491,3	632,4	664,7	218,9	182,4	232,8	236,7	358,6	90,2
ixtiyoriy sug'urta	2 538,7	4 215,8	7 104,8	8 819,0	2 215,9	436,4	865,9	1 331,8	1 714,5	506,2
Hayotni sug'urta qilish sohasi	717,0	1 524,7	322,4	286,4	195,6	616,3	1 498,1	453,6	131,4	47,3
majburiy sug'urta	25,7	26,8	35,6	48,2	20,8	8,6	9,3	12,7	14,7	6,7
ixtiyoriy sug'urta	691,3	1 497,9	286,8	238,2	174,8	607,7	1 488,8	440,9	116,7	40,6

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi O'RQ-730-son "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 7-moddasida (Sug'urta shakllari) sug'urta ixtiyoriy va


majburiy sug'urta shakllarida amalga oshirilishi belgilangan.

Umumiy sug'urta sohasida majburiy sug'urta turlari asosan qonun hujjatlari bilan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish, Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish, Tashuvchining fuqarolik

javobgarligini majburiy sug'urta qilish turlari xissasiga to'g'ri keladi.

Hayotni sug'urta qilish tarmog'ida asosan annuitetlar bilan bog'liq sug'urta turlari hisoblanadi.



4-rasm. O'zbekistonda umumiy va hayotni sug'urta qilish sohalarida majburiy va ixtiyoriy sug'urtaning ulushi, foizda [12]

Umumiy sug'urta sohasida yildan yilga majburiy sug'urta turlarining ulushi kamayib bormoqda. Bu bir tomondan, ixtiyoriy sug'urta turlarining o'sishi bilan bog'liq. Masalaning ikkinchi tomonini ham hisobga olish zarur.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta tarifi va sug'urta summasi hozirgi zamon talabiga mos kelmaganligi sababli, sug'urta tashkilotlari juda katta moliyaviy yo'qotishlarga uchrayotganligi sababli ular bu majburiy sug'urta turini rivojlantirishga urg'u bermayapti.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish turi bo'yicha nazorat funksiyasining pastligi sababli ish beruvchilar o'z fuqarolik javobgarligini sug'urta qilmayapti. 2024-yil yakunlariga ko'ra O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 483,1 mingtani tashkil etgan [19]. 2024-yilda sug'urta tashkilotlari tomonidan 40,3 mingta ish beruvchilar bilan mazkur majburiy

sug'urta turi bo'yicha sug'urta shartnomalari tuzilgan. Tuzilgan sug'urta shartnomalari faoliyat yuritayotgan korxonalarning 8,3 %ini tashkil etgan.

Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish turi bo'yicha ham mas'ul tashkilotlar tomonidan nazorat samarali amalga oshirilmayapti. Mazkur sug'urta turi bo'yicha 2021-yilda 41,9 mingta, 2022-yilda 31,4 mingta, 2023 yilda 12,6 mingta, 2024-yilda 9,3 mingta tashuvchilar bilan tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomalari imzolangan [12]. 2021-yilga nisbatan 2024-yilda tuzilgan majburiy sug'urta shartnomalari soni 4,5 barobarga kamaygan.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston va jahon sug'urta bozori asosiy ko'rsatkichlari tahlili, sug'urta sohalari va ularni rivojlanish tendensiyalari, xalqaro sug'urta (qayta sug'urta) bozori bilan

integratsiya jarayonlari, mavjud amaliyot tahlilidan kelib chiqib quyidagi xulosa va takliflarni bildiramiz:

Birinchidan, Jahon sug'urta bozorida hayotni sug'urta qilish sohasining ulushi 43%ni tashkil etmoqda, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 2024-yil yakunlariga ko'ra atigi 3%ni tashkil etgan. Hayot sug'urtasining jamiyat, aholi uchun birlamchi va eng kerakli sug'urta xizmatlari ekanligini hisobga olib, fuqarolarning daromad solig'i bo'yicha berilgan soliq imtiyozini qayta tiklash masalasini ko'rib chiqish lozim deb hisoblaymiz. Bunday imtiyoz qayta tiklangan taqdirda hayotni sug'urta qilish tashkilotlari tomonidan va ularning ko'p sonli xodimlari tomonidan to'lanadigan soliqlar hajmi hayot sug'urtasini amalga oshirgan aholi uchun imtiyoz sifatida berilgan daromad solig'i summasidan oshishi mumkin.

Ikkinchidan, O'zbekiston va jahon sug'urta bozori integratsiyasi qayta sug'urta faoliyatida sezilarli darajada rivojlandi. Lekin, mamlakatimizda sug'urta xizmatlari eksporti asosan umumiy sug'urta sohasi klasslarini o'z ichiga olgan sug'urta mahsulotlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Hayotni sug'urta qilish sohasidagi sug'urta tashkilotlarida xalqaro reytinglarni qo'lga kiritishni tezlashtirish, mazkur soha yo'nalishida sug'urta eksportini amalga oshirishni yo'lga qo'yish zarur deb hisoblaymiz. Xalqaro sug'urta bozorida hayot sug'urtasi va qayta sug'urta yo'nalishida yaxshigina amaliy tajriba to'plangan.

Uchinchidan, O'zbekistonda majburiy sug'urta turlarini amalga oshirilishi bo'yicha nazoratni ta'minlovchi vakolatli davlat organlari tomonidan qat'iy rejalar ishlab chiqish orqali majburiy sug'urtani amalga oshirish lozim, aks holda majburiy bo'lgan mijozlar tomonidan sug'urta shartnomalarini tuzish sustligicha qoladi. Ma'lumki, har qanday majburiy sug'urta turlari birinchi navbatda, aholi uchun, ularning manfaatlari uchun xizmat qilib, turli baxtsiz hodisalarda ularni moliyaviy zararlarini sug'urta mexanizmi orqali qoplash hisoblanadi.

To'rtinchidan, Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish turini to'liq tahlil qilgan holda sug'urta summasi va sug'urta mukofotini qayta ko'rib chiqishda sug'urta mukofotini bozor muvozanati doirasida o'zgaruvchan shakllantirish prinsiplari (amaldagi bazaviy hisoblash miqdoriga bog'lash) asosida belgilash eng maqbul yo'l deb hisoblaymiz.

Beshinchidan, dunyoda iqlim o'zgarishi, mamlakatimiz hududlarining geografik, seysmik holatini, tabiiy va iqlim sharoitlarini va boshqa ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda jismoniy va yuridik shaxslarning ko'chmas mulklarini majburiy sug'urta qilishga qaratilgan majburiy sug'urta turini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi O'RQ-730-son "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi 4412-sonli "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
3. Moliya vazirining 2008-yil 20-noyabrdagi 107-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "gi Nizom.
4. Sharobiddinov A.G. Sug'urta sohasining O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rni. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. – Toshkent, 4-son, 2024-yil.
5. Sharobiddinov A.G. O'zbekiston sug'urta bozorida qayta sug'urta faoliyatini rivojlantirish istiqbollari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. – Toshkent, 11-12-son, 2023-yil.

6. Sharobiddinov A.G. *Insurance in Uzbekistan: Experience and Practice*. Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN: 2249 -0892 Vol13 Issue-01, June -2023.
7. Kenjayev I.G'. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish samaradorligini oshirish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. – 59 b.
8. Umarov S.A. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida O'zbekistonda sug'urta faoliyati rivojlanishini boshqarish. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2012. – 49 b.
9. Shennayev X.M. O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari. Monografiya. – T.: «Iqtisod-moliya», 2021. – 336 b.
10. Yuldashev O.T. O'zbekistonda hayot sug'urtasini rivojlantirishning konseptual asoslari. Monografiya. – Qarshi.: «Intellect», 2022. – 290 b.
11. Qo'ldoshev Q.M. Sug'urtaning muqobil shakli sifatida o'zaro sug'urtalash jamiyatlarini tashkil etishning nazariy va huquqiy asoslari. Monografiya. – T.: «Vneshinvestprom», 2018. – 120 b.
12. <https://napp.uz/ru> ma'lumotlari.
13. <https://www.munichre.com/en/company/> va Swiss Re ma'lumotlari.
14. <https://stat.uz/> ma'lumotlari.
15. https://res.cloudinary.com/drxqomgmy/image/upload/v1692277323/ccg7ofsczsxtlevz_s75d.pdf
16. <https://imda.uz/> - Sug'urta sohasida maxsus vakolatli davlat organining turli yillarda sohaga oid chop etgan statistik ma'lumotlari.
17. https://iee.org.ua/ru/prog_info/68031/
18. <https://www.zakon.kz/sobytiia/6470798-za-shest-let-vvp-na-dushu-naseleniya-prevysil-14-tysyach-dollarov-v-kazakhstane.html>
19. https://stat.uz/img/02-vvp_press-reliz-2024rusp74252.pdf
20. <https://www.munichre.com/en/company/media-relations/media-information-and-corporate-news/media-information/2025/natural-disaster-figures-2024.html>
21. <https://mineconomy.uz/uz/news/view/4105>
22. Адамчук Н.Г. Мировой рынок страховых услуг в условиях глобализации. Автореферат диссертации на соискание ученой степени д.э.н. – М.: - 2005. – с.56.